

## **JINOYAT ISHINI KORIB CHIQISHDA SUDYANI RAD QILISH TARTIBI, XORIJIY TAJRIBA**

Durdubaeva Nargiza Muratbaevna.

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish

Akademiyasi tayanch doktoranti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada sudyaning jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lganda protsessda ishtirok etishni rad qilish tartibi, yakka tartibda ish korayotgan sudyaning ozini ozi rad etish tartibi ko'rib chiqiladi. Shuningdek sudyaning xolisligi masalasi va chet el tajribasi o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Jinoyat protsessi, rad qilish, ozini ozi rad qilish, monelik qiluvchi holatlar, suda, proruror, tergovchi, guvohlar, ayblanuvchilar, xolislik.

### **Аннотация**

В данной статье рассмотрен порядок отказа от участия в производстве по уголовному делу при наличии обстоятельств, препятствующих участию судьи в уголовном процессе, а также порядок отвода судьи, действующего единолично. Также изучаются вопросы беспристрастности судей и зарубежный опыт в этом направлении.

**Ключевые слова:** Уголовный процесс, отвод, самоотвод, препятствующие обстоятельства, судья, прокурор, следователь, свидетели, подсудимые, беспристрастность.

### **Annotation**

This article deals with the procedure of refusal to participate in the proceedings when there are circumstances preventing a judge from participating in the criminal proceedings, and the procedure for the refusal of a judge acting individually. Also, the issue of judge's impartiality and foreign experience are studied.

**Keywords:** Criminal procedure, denial, self-denial, impeding circumstances, judge, prosecutor, investigator, witnesses, defendants, impartiality.

Jinoyat ishini sud protsessida ko'rib chiqishda sudyaningadolatliligi va xolisligi masalasi odil sudlovning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Sudyani ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdorligi uning ishning ko'riliши va hal qilinishiga bir tomonlama yondashishi natijasida ish yuzasidan noqonuniy, asossiz vaadolatsiz qarorlar chiqarilishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual qonunchiligidajinoyat ishini ko'rib chiqishda ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar va rad qilish asoslari va tartibi yetarlicha joylashtirilgan bolsada amaliyatda ayrim masalalar haligacha yechimini topmasdan qolmoqda. Misol uchun sudyani rad qilish aynan qaysi mansabdor shaxs tomonidan rad qilinishi masalasiga kelganda qonun chiqaruvchi tomonidan ishni yakka tartibda ko'rayotgan sudyaning o'zini o'zi rad qilishi ko'rsatilgan bo'lsada, sud amaliyatida sudyaning ozini ozi rad qilishi juda murakkab masala hisoblanadi. Chunki sudyani rad qilish to'grisda ariza berilganida uni rad qilish asoslarini isbotlash ancha qiyinchilik tug'diradi. Negaki JPK 76-moddasida korsatilgan asoslardan birining mavjudligi masalan, uning xolisligiga va beg'arazligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjudligini isbotlashda uning shaxsiy bevosita yoki bilvosita manfaatdorligini yoki sudyaning protsess ishtirokchilaridan biri bilan do'stona munosabatini yoki aksincha ularning ortasida adovat borligini uning xolisligiga va beg'arazligiga shubha tug'diradigan holatlar sifatida isbotini topmasa sudyani rad qilish togrisida ariza sudya tomonidan qanoatlantirmasdan qoldirilishi mumkin. Shunki sud tergov amaliyatida rasmiy ravishda qonun doirasiga tug'ri kelmagan lekin aslida sud'yaning ishda ishtirok etish imkoniyatini mohiyatan istisno qiladigan holatlar ham uchrab turadi.

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuning 62-moddasida ham manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda o'zini o'zi rad qilishi va sud prosessi ishtirokchilarini xabardor qilishi shartligi belgilab qo'yilgan va sudya sud jarayonida unga nisbatan rad qilinishi mumkin bo'lgan holatlar mavjud bo'lganda, prosessda qatnashmasligi kerak. Chunki faqat ob'ektiv va xolis sud tomonidan qonuniy vaadolatli yechim qaror topadi.

Bir qator xorijiy olimlar fikricha sud'yaning manfaatdorligining mavjudligi ularning jinoiy ishni ko'rib chiqishini man etishni anglatadi. Shaxsiy manfaatdorlik sudyaning vazifalari va kasbiy burchidan kelib chiqadigan yoki jamoat manfaatlaridan ajralib turishi kerak deb hisoblaydi.

Agar sudyaning ishda ishtirok etishga monelik qiluvchi holatlar sud prosessi boshlangandan so‘ng ma'lum bo‘lib qolsa, rad qilish to‘g‘risidagi masala qonun doirasida hal qilinishi lozim. Biroq rad qilish to‘g‘risidagi arz sud prosessi boshlangunga qadar berilishi kerakmi yoki sud jarayonida beriladimi? Ushbu masala milliy qonunchiligidan aniq belgilanmagan. Sudyani rad etish bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar sud prosessi boshlanishidan oldin ham, keyin ham ma'lum bo‘lishi mumkin. Bu holatlar shu ishni ko‘radigan sudyani tayinlash yoki sud tarkibini shakllantirish jarayonida hisobga olinishi kerak.

Xorijiy adabiyotlardan birida sudyani rad qilish to‘g‘risida ariza ushbu sud prosessi boshlangunga qadar berilishi lozimligi aks holda ushbu rad qilish o‘zining yuridik ma'nosiga ega bo‘lmasligini va ushbu rad qilish haqidagi ariza sudya tomonidan ko‘rib chiqilmasdan qoldirilishiga sabab bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Lekin bu holatga bir tomonlama yondashuv hisoblanadi, chunki ishda ishtirok etishga monelik qiluvchi holatlar sud prosessi boshlanishidan avval ma'lum bo‘lmasligiyam mumkin, shuni hisobga olsak sud jarayoni yakunlangunicha aniqrog‘i, ish yakuni bo‘yicha qaroq hukm yoki ajrim qabul qilingunga qadar rad qilish to‘g‘risida ariza berish mumkin degan xulosa kelib chiqadi.

M.Kazarin “ishni yolg‘iz ko‘rayotgan sud'yaga rad qilish haqida murojat qilinganida rad qilish uchinshi shaxs tomonidan, masalan tegishli sud raisi tomonidan hal qilinishi kerek. Faqat shundagina sud'yani rad qilish va o‘zini o‘zi rad qilish, noxolis sud'yaning mustaqil xolis sud'ya bilan almashtirilishi sudlarning mustaqilligining prosessual kafolati taminlanadi” deb yozadi. Yana bir olim N.Volosova ham aynan shu masalani mansabdar shaxslarning korrupciyaga qarshi xulq-atvor standartlari bilan bog‘lagan holda ishni yolg‘iz ko‘rayotgan sud'yaga rad qilish haqida murojat qilinganida rad qilish ushbu sud faoliyat yuritayotgan kollegial sud tarkibida hal qilinishi kerek degan fikrni bildiradi.

Fikrimizcha ham bu yerda shuni nazarda tutish kerakki, agarda ishni yolg‘iz ko‘rayotgan sud'yaga rad qilish haqida murojat qilinganida rad qilish shu sudyaning ozi tomonidan korib chiqilib ariza qanoatlantirilmasdan sud jarayoni davom etadigan bolsa arz qiluvchida aynan shu sud majlisi zalida aynan shu masalada qayta arz qilish huquqi bolmasligi yani sud raisiga rad qilish haqida arz qila olmasligi mumkin va natijada noxolis sud'ya tomonidan ish boyicha noqonuniy, asossiz vaadolatsiz qarorlar chiqarilishiga sabab bo‘ladi. Aynan shu holatni oldini olish uchun ham ishni yolg‘iz ko‘rayotgan sud'yani rad qilish haqidagi murojaat ushbu sud



buysunadigan sud raisi yoki ushbu sud faoliyat yuritayotgan kollegial sud tarkibida hal qilinishi maqsadga muvofiqdir.

## Xulosa

Rad qilish institutinig asosiy vazifasi jinoyat prosessining ishtirokchilarida, jinoyat ishining sudya, prokuror, surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan to‘g‘ri, adolatli, qonuniy ko‘rib chiqilishi va hal qilinishiga ishonch hosil qilish va shu orqali prosess ishtirokchilarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi. Qayd etilganlardan shunday xulosa qilishimiz mumkin, rad qilish institutini amalga oshirish mexanizmi qonunchiligidan haligacha to‘liq ochib berilmagan. Tergov va sud amaliyotida yuz berayotgan muammolar xorijiy davlatlar huquq normalarini o‘rgangan holda ularni milliy qonunchiligidan haligacha implementasiya qilish orqali qonunchiligidan takomillashtirish lozimligini ko‘rsatadi.

## Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi, Тошкент, «Адолат», 2022
2. Н.Ю.Волосова, «Отвод судьи как условие вынесения законного и обоснованного приговора по уголовному делу: международный опыт»,
3. П.П.Рукавишников, «О процессуальных перелетах отвода судьи в уголовном судопроизводстве», Сибирский юридический вестник, Иркутск 2016.
4. К.О.Рыбкова, ОБ унификации вразличных видах судопроизводства порядка разрешения отвода (самоотвода) судьей, рассматривающим дело единолично. «Журнал Российской юстиции» Москва 2020.
5. М.И.Казарин. “Отвод и самотвод судьи как гарантия независимости судьей” Вестник Томского государственного университета. 2020. №59. С235-241.
6. Кристина.КИТ. “Институт отвода (самаотвода) как гарантия непредвзятого объективного рассмотрения решения дел в административном судье.” NOIEMBRIE 2013. С/115-119.